



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MURAKKAB MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI

Soliyev Ilxomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdufattoyeva Ruxshonxonim Abdualijon qizi

Fargona davlat universiteti 1-kurs talasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17867027>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

Masala, tenglama, tenglik, tengsizlik, tenglamaning yechimi, masalaning yechimi, soddas masala, murakkab masala, arifmetik usul.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab matematik masalalarni yechishga o'rgatishning samarali metodikasi, pedagogik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar keltiriladi. Maqola o'qituvchilar, metodistlar va pedagogik ish bilan shug'ullanuvchilar uchun qo'llanma vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari masalalarni tenglama tuzib yechish usulini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Chunki boshlang'ich ta'limning yuqori uchinchi va to'rtinchi sinflarida masalalarni tenglamalar tuzib ya'ni algebraik yechish ishlariga keng o'rin berilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga masalalarni tenglamalar tuzib yechish masalasini o'rgatishdan avval tenglama tushunchasini batafsil tushuntirishga harakat qilamiz. Tenglama tushunchasi matematika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, bu tushunchadan boshqa aniq fanlarda ham keng qo'llaniladi. Bu tenglama tushunchasiga turli davrlarda shu davrda yashagan olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berib kelganlar.

1. Murakkab masalalar tushunchasi.

Murakkab masalalar quyidagi xususiyatlarga ega: Bir nechta amal yoki bosqichni talab qiladi. Masalani yechish uchun mantiqiy tahlil va sintez qobiliyati kerak. O'quvchilar mustaqil fikrlashni qo'llashga majbur bo'ladi. Misol: "Agar bir bog'da 12 ta olma daraxti bo'lsa va har birida 8 ta olma bo'lsa, jami nechta olma bor?" Ushbu masala nafaqat ko'paytirishni, balki mantiqiy bog'lanishni talab qiladi. O'quvchilarda murakkab masalalarni yechishga tayyorgarlik. Murakkab masalalarni yechishdan oldin quyidagi ko'nikmalar rivojlantiriladi. Soddalashtirilgan masalalarni yechish — bolalar oddiy masalalarni yechishni mustahkamlaydi. Masala tahlili — masalani qismlarga bo'lib tushuntirish.

Qiyoslash va taqqoslash — o'xshash masalalar o'rtasidagi farq va o'xshashlikni aniqlash.

Vizual tasavvur — masalani rasm yoki diagramma orqali ko'rsatish.

Metodik yondashuvlar. Bosqichma-bosqich yondashuv. Masalani tushuntirish → Masalani qismlarga bo'lish → Har bir qadamni mustaqil yechish → Yakuniy natijani aniqlash. Bu yondashuv bolalarni stressdan himoya qiladi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Muammoni guruhda yechish. Bolalar masalani birgalikda muhokama qiladi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bildirishga va boshqa fikrlarni tahlil qilishga o'rganadi. Vizual va amaliy metodlar. Masalani

rasm, diagramma yoki o'yin shaklida berish. Amaliy misollar yordamida masalani yechish. Ijodiy yondashuv. O'quvchilarga masalani yechishning bir nechta yo'lini topish taklif qilinadi. Bolalar alternativ yechimlarni taqqoslaydi va eng mantiqiyini tanlaydi. Pedagogik tavsiyalar. Masalalarni qiyinchilik darajasi bo'yicha bosqichma-bosqich berish. Har bir yechim bosqichini tushuntirish va o'quvchiga mustaqil amaliyot berish. Har bir o'quvchining muvaffaqiyatini rag'batlantirish va xatoliklarni konstruktiv tarzda tahlil qilish. Vizual vositalar va o'yin metodlarini qo'llash. Masalalarni real hayotiy misollar bilan bog'lash. Amaliy misol. Masala: Bir xonada 5 ta stul bor, har bir stulda 3 ta kitob bor. Agar xonada 7 xonada shunday stullar bo'lsa, jami nechta kitob bor? Yechim: 1. 1 stuldagi kitoblar soni: 3. 1 xonadagi kitoblar soni: $5 \times 3 = 15$. 7 xonadagi jami kitoblar: $15 \times 7 = 105$

Xulosa. Masala yechishining har ikkalasini tahlil qilib murakkab masalalarni algebraik usulda yechishga to'liq o'tish uchun tayyorgarlik davri hisoblanadi. Bunday masalalardan bir nechtasini shunday ikki usulda ishlagandan qiyin, masalalarni algebraik usulda ishlashga o'tish mumkin bo'ladi. Masalalarni yechishda turlicha yondashuv avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchilarning qolaversa maqsadga to'g'ri yondashuv o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishiga, maqsadga intilishni tarbiyalaydi



INNOVATIVE
ACADEMY